

## IJODKOR IZDOSHLARI

**Gulchiroy Turdaliyeva**

**A.Navoiy nomidagi**

**o'zbek tili va adabiyot univetsiteti**

**magistranti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11526495>

Ijod ahli haqida so'z borar ekan, Navoiyni eslaganda "so'z mulkining sultoni", "muhabbat kuychisi" – Mashrab, "ma'nolar otasi" - Bedil, "erk kuychisi" - Cho'lpon va bu misollar hech yakun bilmaydi. Shunday iste'dod borki, "tabiatan shoir", "tug'ma shoir", "otash nafas ijodkor", "chaqmoqdek porlagan" deya ko'plab tasvirlarni olgan ijodkor Usmon Masodiq o'g'li Nosirov. Adabiyot olamiga kirgan har qanday shaxs uni o'rgangisi, unga atab qatralar bitgisi keladi. Chunki har bir misrasi yurak qoni qo'shilib bitilgan.

Taniqli adabiyotsunos olim Ibrohim Gofurovning "Qismatning ovozi", "Unutmas meni bog'im" (Xurshid Davron sayti), Akademik Naim Karimov "Usmon Nosirning so'nggi kuni", O'zbekiston Qahramoni A. Oripov "Usmon Nosir haqida so'z" - O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, Sobir Mirvaliyev, R. Shokirovaning "O'zbek adiblari", shuningdek, shoir To'ra Mirzoning "Usmon Nosir" nomli badiasi, "Usmon shoir – osmon shoir", Iqbol Mirzoning "Usmon Nosir" dramasi, "Usmon Nosir" she'ri, Nodira Rashidova "Usmon Nosir haqida", Mirpo'lat Mirzo "Armon" nomli essesi, yosh va qalami o'tkir yozuvchi Jovlon Jovliyevning "Usmon Nosir" kitobida ham aynan shoir ijodi tadqiq etilgan.<sup>1</sup>

Ibrohim G'ofurov "Qismatning ovozi" maqolasida shunday yoritadi:

Usmon Nosiriy oldida bizning hech uzib bo'lmaydigan so'ngsiz qarzimiz bor. Har safar Usmon Nosirni xotirlaganda, har safar uning so'zidan — she'rlari va dostonlaridan bahrador bo'lganda, doim shu qarz moziydan uzatilgan bir qo'l kabi odamning yelkasidan tutadi. Olamni she'r suronlari bilan to'ldirishga qodir bo'lgan yigit o'z vatanini har narsadan ortiqroq sevib, shu sevgisini kuylagani uchun zo'ravon saltanat tomonidan mahv etildi. Shu hayot zavqlariga to'lib toshgan yigitning axir nima gunohi bor edi. Haqiqiy shoirlar har qachon o'z yurtlarining timsoli bo'ladilar. Ular o'z yurtlarining daryolariga, o'z osmonlarining bulutlariga, o'z tog'larining mingashma cho'qqilariga, o'z yo'llarining karvonlariga va o'z onalarining chaqaloqlariga o'xshaydilar. Shular bilan birga haqiqiy shoirlar o'z millatining qalbiga o'xshaydilar.

Sobir Mirvaliyev "O'zbek adiblari" xrestomatiyasida bir qancha ijodkorlar hayoti va ijod yo'lini yoritib bergan. Usmon Nosir haqida so'z yurita turib: Samimiy, jo'shqin, lirik iste'dod egasi Usmon Nosirning asarlari hamisha kishini hayajonga soladi. Usmon Nosir qatag'onlik davrining qurboilaridan biri sifatida yosh umrini sho'ro lagerlarida azob-udubatda o'tkazib, tutqunlikda 1944-yili vafot etgan. Shoir nomi yoshlik, kurash, go'zallik kuychisi bo'lib, o'zbek xalqi qalbidagi abadiy yashaydi. Ha, shoir o'zi aytganidek:

Ming yillardan keyin ham

Unutma meni bog'im.

She'rlarim yangrab qolur...

Bir umrga o'lmayman,—

deganda haq edi.

<sup>1</sup> Urinov Odilbek Laziz o'g'li. Usmon Nosir: shaxs, shoir va tuzum NEWINNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION (NINE)

Mirpo'lat Mirzoning "Armon" nomli essesda shoir haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan: Usmon Nosirning bolaligi borasida ikki xil qarash mavjud. Birinchisida – o'gay ota Nosirhojining bo'lajak shoirlariga nihoyatda mehrli bo'lganligi va uning yosh Usmonni shoir bo'lishiga qo'shgan hissasi ko'p o'rinlarda ta'kidlanadi. Bunday ta'kid shoirning jiyani, shoira va tarjimon Nodira Rashidova tadqiqotlarida ko'ramiz. Ikkinchi xil qarashda o'gay otaning sho'x, tiyiqsiz bolaga o'tkazgan jabru zulmi bayon etiladi. Va bunday qarash egasi professor Naim Karimov o'zining "Usmon Nosir"\* nomli risolasida fikrining tasdig'i ma'nosida shoirning internatdosh do'sti Temur Fattohning do'sti og'zidan eshitgan ushbu so'zlarni keltiradi: "Otam meni qiynab juda ko'p urgan. Bir kuni onam uyda yo'q vaqtida holdan ketganimcha urib, so'ng qo'limni orqamga bog'lab, oyog'imdan quduqqa osib ketgan. Hayriyatki, shu kuni o'rtog'im Tohirjon Sobirov hovlimizga kelib qolib, quduqda ingrab yotganimni eshitib, meni tortib oldi..." Shoirning "Kechmish kunlarim" she'ridagi ushbu satrlar o'sha yurakdan o'chmas sitamlarning ifoda sidir:

Uch-to'rt yil burun

"O'gay"da yurdim.

Minut-minutda

Kaltaklar yedim...

Uzoq o'ksinib,

Chidolmay sira

Bir kuni so'kdim.

Shuning-chun darrov

Haydalib ketdim.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov "Yurak va mehr shoiri" maqolasida esa: "Tadqiqotchilar shoirning bolalik chog'lari og'ir kechganligini ta'kidlar ekanlar, bunda ko'proq uning she'rlariga asoslanadilar. Davr shunday edi. Usmon Nosirning bolalik davridan shikoyatlarini Nosir otadan ko'rmaslik va unga bog'lamaslik kerak", deyiladi.

Usmon Nosir hayotida kechgan ushbu lavhalarini keltirishdan muddao yo u, yo bu tomonning fikrini tasdiqlash emas, balki bo'lajak shoir bolaligi nihoyatda murakkab kechganligiga e'tiborni qaratmoqlikdir. Balki, bular birinchi tomon da'vo qilganidek uydirmadir. Bugungi kunda bu jihatlar shoir ijodiy merosi qimmatini na oshiradi, na kamaytiradi. Ammo uning umr so'qmoqlarini mufassal bilmoqni istaganlar uchun tafsilotlarning barchasi muhimdir. Qolaversa, bu shoirning tirik ruhi oldidagi mas'uliyat hamdir.

30-yillarda sho'ro mavzusida asarlar yozmaganligi uchun boshqa shoirlar singari Cho'lponga ham, Fitratga ham ko'p ta'na toshlari otilgan. Shunda kimdir, Fitratga murojaat etib, "Domla, shuncha dakki eshitavermay, traktor haqida bitta she'r yozib qo'ysangiz asakangiz ketadimi?" deganda Fitrat domla: "Ey dono yigit, men hatto traktorning tarillagan ovoizidan qo'rqaman-ku, qandoq qilib u haqda she'r yozay?", deb javob qilgan ekan. Lekin Usmon Nosir qalami har qanday mavzuga jazo eta oladigan chapdast, tug'yonli qalam edi. Zotan uning traktorga bag'ishlangan she'rlari ham anchagina. U "Traktorobod" nomli doston yozishni ham niyat qilgan.

Usmon Azim o'zining "Ulug' otdoshim" degan maqolasida esa:

Men aruzdan barmoq vazniga o'tish davridagi izlanishlarni nihoyasiga yetkazishda G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon qatorida Usmon Nosirning xizmati ham beqiyos ekanini alohida ta'kidlashni istardim. Usmon Nosirning xizmati nimada? U barmoq vazniga asl she'rning yuragi bo'lmish DARDni olib kirdi. "Osmoniy" emas, zaminiy bo'yoqlar uning satrlariga oqib kira

boshladi. Odamlar o'rtasidagi oddiy so'zlashuvga monand gaplar uning iste'dodi bilan nurlangach, she'rga aylandi. Eslang: "Yo'q, hali hammasi o'tganmas, / Hali bor hayotda nasibam, / Silligim bezarar – hech gapmas, / Borini ko'raman, Nasimam!" Juda ko'p ishlatiladigan "peshonada borini ko'ramiz-da" jumlasini she'rga ko'chganda naqadar ta'sirli va fojiali jaranglaydi. She'rning shoir taqdiridan ko'chgan o'rinlari ham yurakni bir siltab tashlash darajasida larzador. Baytlar bejalmagani, samimiyligi, to'ppa-to'g'ri yurakka yetib borishi bilan ajralib turadi.

### References:

1. Urinov Odilbek Laziz o'g'li. Usmon Nosir: shaxs, shoir va tuzum NEWINNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION (NINE)
2. Sobir Mirvaliyev O'zbek Adiblari – "Fan" nashriyoti -1993.B.52.
3. [WWW.xurshid](http://WWW.xurshid) davron kutubxonasi

